



## O'QITUVCHILAR TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA MOHIYATI

*To'ychiyeva Asilabonu Temirjon qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchilardagi texnologik kompetentligining mazmuni, mohiyati va dolzarbligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologik kompetentlik, ta'lim tizimi, mohiyat, pedagogik jarayon, faoliyat, pedagogik mahorat,

Hozirgi kunda o'qituvchilarda texnologik kompetentlikni shakllantirish, uning mohiyati, mazmuni va tuzilishini ochib berish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan. Fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, m a'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart. Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo'lishi kerak. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, o'qituvchining ijtimoiy maqomini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'qituvchi – jamiyatning eng muhim tayanchi, inson qalbi va tafakkurini yorituvchi muallimdir." Bu fikr zamonaviy jamiyatda o'qituvchining nafaqat ta'lim tizimida, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tutgan o'rnini ifodalaydi. Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak



malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Texnologik kompetentlik – kasbiy pedagogik bilim, ko'nikma, malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish hamda zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olish hisoblanadi.

Texnologik kompetentlik tushunchasini kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shu bilan birgalikda shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin.

O'qituvchilarning faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim berishi o'quvchilarning ta'lim olishini yengillashtiradi va pedagog uchun ham ko'plab qulayliklarni ta'minlaydi. Hozirgi paytda o'quv materiallari, axborotni ekranda ko'rsatish imkoniyati vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

- o'quvchi talabalarga o'rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish;
- o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish;
- talaba, o'quvchilarning xohish, talab, ehtiyojlarini, qiziqishlarini qondirish;
- o'qituvchining o'quvchi, talabalarining bilimini, ko'nikmalarini sinash bilan bog'liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish;
- talaba-o'quvchilarning o'zlashtirishi bo'yicha obyektiv hisobot, to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zida yuqoridan buyruq,



ko'rsatma bilan ta'lim jarayoniga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq bo'lgan jarayondir.

Zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonida asosiy o'quvchining berilgan murakkab o'quv axborotlaridan osonlik bilan foydalana olishiga yordam berish, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish faoliyatiga imkoniyat yaratish vazifalarini bajaradi.

Uzluksiz ta'lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o'quv mashg'ulotlarini mukammal tashkil qilish-o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e'tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi uning o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg'ulotlarning sifati belgilaydi. Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalaiga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi zamonaviy jamiyatning eng muhim va ustuvor tayanchi sifatida mamlakatning intellektual, ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodni ma'naviy yetuk, milliy g'urur va insoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllantiruvchi tarbiyachidir. Hozirgi davrda o'qituvchi shaxsidan kutilayotgan asosiy talab – innovatsion fikrlash, pedagogik mahorat, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli savodxonlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un holda namoyon eta olishdir.



Texnologik kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol va innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llay oladi, o'quvchilarning individual ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi hamda o'quv natijalarining obyektiv monitoringini ta'minlaydi. Bu esa ta'lim sifati, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'qituvchilar texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-5847-son Qarori
2. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: «Fan», 2005.
3. Azizxojayeva N.N "Pedagogik texnologiyava pedagogic mahorat" T.: 2003y 174bet
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. A.Madvaliev tahr. ostida. Tahrir hay'ati: E. Begmatov va boshq. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
5. Ahmedova M " Pedagogika nazariyasi va tarixi". T.: "Tafakkur bostoni" 2011 yil
6. N. Muslimov, M. Usmonboyeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" Toshkent – 2015;